

**Shoyim Bo‘tayeov qissalarida lisoniy shaxsning pragmatik talqini****Abdushukurova Gulrux Abduaziz qizi**SamDU Filologiya fakulteti Lingvistika
(o‘zbek tili yo‘nalishi) 2- kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqiy akt haqidagi ilmiy qarashlar, pragmalingsvistika sohasida o‘rganilgan tomonlari keltirilib, Shoyim Bo‘tayeovning qissalaridan keltirilgan ayrim misollar orqali ochib berilgan. Shuningdek, nutqiy aktning xabar, buyruq, ta’kid kabi turlariga ham alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Nutqiy akt, pragmalingsvistika, adresant, adresat, muloqat jarayoni, boshlang‘ich intensiya, natijaviy intensiya, xabar akti, buyruq akti, so‘roq akti.

Shoyim Bo‘tayeov qissalarida lisoniy shaxsning pragmatik talqini

Ma’lumki, badiiy asar personajlari badiiy nutqni yaratishiga ko‘ra turlicha mavqega ega bo‘ladi. Ayrim personajlar asarda faol nutq egasi sifatida markaziy o‘rinni egallasa, ayrim personajlar, aksincha, nutqiy faollikka ega bo‘lmaydi. Badiiy asarda ishtirok etuvchi personajlar, ular qanday xarakterda bo‘lmasin, har biri alohida, masalan, rahbar, xodim, o‘quvchi, o‘qituvchi, ona lisoniy shaxs tipini hosil qila oladi. Badiiy asarlarda personaj lisoniy shaxsining ichki tiplarini farqlash mumkin bo‘ladi. Biroq bu o‘rinda qayd etish lozimki, badiiy asarda o‘z nutqi bilan ishtirok etgan har bir personaj lisoniy shaxs sifatida gavdalanavermaydi. Nutqni yaratish va idrok etish qobiliyatini namoyon etuvchi personaj nutqida shaxsga xos sifatlar aks etsagina, bunday nutq egasi lisoniy shaxs darajasiga ko‘tarila oladi. Asarda personajning shaxsiy sifatlari yozuvchi tomonidan belgilanib, uning nutqida til vositalari orqali aks ettiriladi. Shunga qaramay, personaj tilning nutqiy imkoniyatlarini namoyish qilish bilan birga, jamiyatda o‘rnashgan milliy-madaniy qarashlar, tasavvurlar, kishilarga xos ruhiyat kabilarni ham nutqi orqali ifoda etadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, lisoniy shaxs tiplari, avvalo, badiiy asar turiga ko‘ra farqlanadi. Lirik she’rlarda asosiy hollarda yozuvchining yakka o‘zi lisoniy shaxs



tipini hosil qiladi. Murakkab syujetli asarlarda esa yozuvchi nutqi va u yaratgan personajlar nutqi farqlanadi. Bu jihatdan badiiy asarda dastlab yozuvchi lisoniy shaxsi va personajlar nutqiga asoslangan lisoniy shaxs tiplarini ajratish lozim bo'ladi. Badiiy asarning hamma turida yozuvchi asarning boshidan oxirigacha lisoniy shaxs maqomida bo'ladi. U o'z nutqi orqali gohida notiqlik vazifasini bajarsa, goho hissiyotlarini oshkora yoki yashirin ifoda etuvchi til egasi sifatida gavdalanadi, ba'zan o'z personajlarini harakatlantiruvchi “yo'l boshchi” sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchining nutqi oddiy tavsif ruhida ham, ba'zan hissiyotlarga to'la ko'rinishda ham bo'ladi. Yozuvchi badiiy matnda qanday mavqeni egallamasin, uning nutqi alohida lisoniy shaxs tipi, ya'ni yozuvchi lisoniy shaxsini hosil qiladi.

Shoyim Bo'tayevning “Hayot”, “Shamol o'yini” “Eski arava”, “Muyulishdagi uy”, “Sho'radan qolgan odamlar” qissalari yangicha tafakkur tarzi va qahramon yaratishda dadil qadam bo'ldi. Muhimi shundaki, bu qahramonlar fazilatlarini va qusurlari bilan o'z davrining farzandlari, ijtimoiy-siyosiy muhit xususiyatlarini aks ettiradilar.

Shoyim Bo'tayev asarlaridagi personajlar nutqi asosida adib yaratgan lisoniy shaxs tiplarini belgilaymiz.

Ma'lumki, Sh.Bo'tayevning “Eski arava” qissasida bir-biri bilan uzviy bog'liq voqealar tasviriga bag'ishlangan sodda syujetli asar hisoblanadi. Qissada qishloq kishilariga xos fe'l-atvor, samimiy va beg'ubor tuyg'ular nihoyatda go'zal va shirali tilda, oddiy aniq va ravon bayon etiladi. Imon, insof, diyonatlilik asar qahramonlarining ma'naviy-axloqiy fazilatlariga aylanadi. Yana inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar o'ziga xos tarzda yangicha holatda o'z badiiy umumlashmasini topadi. Ularning har biri o'ziga xos nutqi orqali alohida lisoniy shaxs tipini hosil qila oladi.

Qissa janrining talabi asar syujetining yagona qahramon hayotining drammatizmga boy, lirik talqinga moyil lahzalarini tasvirlashga asoslangan. Qissalardagi bayon shakllari - ular “men” tilidan olib boriladimi, ijodkor yoki alohida bayonchi tilidan olib boriladimi - har uch holatda ham asar qahramonining xatti-xarakati, ruhiy xolatining tasviri bosh planda turadi.



Badiiy asar muallifi yoki personaj nutqida ham muayyan tilning imkoniyatlari, ham shaxsga xos eng muhim sifatlar (jins, kasb-kor, ijtimoiy mavqe, yosh belgisi va boshqalar) namoyon bo'lsagina, ularni lisoniy shaxs sifatida talqin etish mumkin. Sh. Qalandarov to'g'ri qayd etganidek, “adib personajlarni matnda jonli til sohiblariga tenglashtira olsagina, ularni lisoniy shaxs deyish mumkin”.¹

Ijodkor badiiy asarda til vositalari orqali olam haqidagi qarashlarini aks ettirar ekan, uning o'ziga xos xususiyatlar ham bevosita badiiy matnga ko'chadi. Bu, ayniqsa, avtobiografik asarlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Avtobiografik asarlarda yozuvchi o'zi ko'rgan, boshidan o'tkazgan voqea-hodisalarni qalamga olar ekan, bu jarayonda o'z shaxsini qayta “shakllantiradi”. Masalan, G'.G'ulomning “Mening o'g'rigina bolam” hikoyasini bolalagida o'zi guvoh bo'lgan voqea asosida yozganligi ma'lum. Shu bois bu hikoya avtobiografik asar sifatida baholanadi.

Asarning nutqiy faol personajlari tomonidan yaratilgan matnlarni tahlil qilish asosida lisoniy shaxsning quyidagi turlarini ajratdik:

Nutqida ijtimoiylik belgisini namoyon etuvchi lisoniy shaxs tiplari: a) nutq egalarining ijtimoiy rolini namoyon etuvchi lisoniy shaxs tiplari.

Muloqot jarayonida nutq ishtirokchilarining ijtimoiy roli nutqning tarkib topishi, mazmuni, til vositalarining tanlanishi kabilarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, o'zbek lingvomadaniyatida kelin va qaynonaning bir mavzudagi nutqlari ularning oiladagi mavqei asosida bir-biridan farq qiladi. SHu ma'noda ijtimoiylik belgisi insonning nutqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri sanaladi. Hatto Sh.Safarov qayd etganidek, kommunikantlarning sifatleri muloqot tizimida qanchalik muhim o'rinni egallamasin, har holda, bu tizimning markazida kommunikantlarning *ijtimoiy roli* turadi.² Insonni barcha sifatleri bilan birga nutqini namoyon qiluvchi matnlar lisoniy shaxs tipini hosil qila oladi. Quyida asarda ijtimoiy lisoniy shaxs tiplarini hosil qiluvchi nutq ko'rinishlarini tahlil qilamiz.

¹ Qalandarov Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси: Филол. фан. бўй. фалс. докт. ... дисс. – Фарғона. 2019. – Б. 109.

² Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энцикло-педияси, 2008. – Б. 142.



Kasb-koriga ko'ra lisoniy shaxs tipiga “Sho'rodan qolgan odamlar” qissasidagi **Nazoratchi** obrazini ham misol qilib olishimiz mumkin. Garchi, birinchi navbatda ota bo'lsa ham uning nutqida faqatgina mustabid zamonning amaldoriga tegishli bo'lgan nutqni ko'rishimiz mumkin. Masalan: O'g'irlikda ayblanayotgan o'smir yigitlardan birining onasi Nazaratchidan yalinib, ularni ozod qilishini iltimos qilib so'rab kelganda, nazoratchining bergan javobidan anglash mumkin.

-Bu ishlarga men aralasha olmayman. Zako'n ...deya kalta javob qaytardi.

Ayol nimadir demoqchi bo'lganida, nazoratchi gapirgani qo'ymadi.

-Hukumat oqni oqqa, qorani qoraga ajratadi –deb faxrlanayotganday qo'shib qo'ydi (Sho'radan qolgan odamlar, 67).

Chinovnik lisoniy shaxsi.

La'nati, piyonista! – Chichikov bo'kirib yubordi.

Shu zahotiy ostonada Petrushka ko'rindi. Og'zi qulog'ida, lablarini yig'ishtirmay, iljaygani iljaygan edi.

- *Labbay, xo'jayin! – xitob qildi u tantanavor ohangda.*
- *Qayoqqa yuribsan, it emgan?*
- *Etigingizni tozalayotuvdim.*
- *Yolg'on aytasan. Etigim, ana kravot ostida yotibdi....*
- *Eeeee.*

- Gapga quloq sol, - dedi Chichikov uning yolg'onlayotganiga unchalik ahamiyat bermay. – sen ham... allaqayoqlarga ketmoqchi emishsan? (132).

Berilgan nutqiy parchada qo'llangan *la'nati, piyonista, it emgan, yolg'on aytasan* birliklari nutq egasining xarakter-xususiyatini aks ettirish bilan birga, uning shaxsiy sifatlari – chinovnik ekanligi, jinsi, ruhiyati haqida ham ma'lumot beradi. Bu o'rinda nutq egasi tomonidan aytilgan *Mehmonimiz shu aravalari bilan naq Maskovning o'zidan kelyaptilarmi?* jumlasini ham uning ayol jinsiga mansubligini anglatadi.

Qissadan olingan quyidagi nutqiy parchada ham ruslarga laganbardorlik qiladigan rais Nishonboy Hurzamonovich lisoniy shaxsi yaratilgan:



- *Raz shunday ekan, - dedi qat'iy ohangda – Siz marhum dehqonlaringizni ro'yxatini beravering. Ularning nomlarini abadiylashtirish bizning zimmamizda!* (150-bet)

Berilgan nutqiy parchada qo'llangan abadiylashtirish bizning zimmamizda birikmasi nutq egasining vazifaga ega, qo'lidan kolxozdagi barcha joy nomlarini almashtirish kela oladigan shaxs ekanligiga ishora qiluvchi indikator hisoblanadi.

Anglashiladiki, Shoyim Bo'tayev lisoniy shaxsni yaratar ekan, unda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratgan:

- 1) nutqning emotsionalligi va hissiyotlarga boy bo'lishi;
- 2) nutqning shaxsning psixologik holati, kechinmalarini aks ettirishi;
- 3) shaxslar nutqida o'zbek nutq odobi me'yorlariga amal qilinishi;
- 4) nutqning uslubiy xoslanishi va to'g'ri tuzilishi;
- 5) nutqi orqali shaxslarning milliy-madaniy qadriyatlarga munosabatini aks ettirish kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. –T., 2008.
2. Воронин С. Фоносемантические идеи в зарубежной языкознании. –Л., 1999.
3. Hakimov M.,Gaziyeva M.,Pragmalingvistika asoslari .-T., 2020.
4. Bo'tayev Sh.Shamol o'yini, qissa –T ., 2000.
5. Bo'tayev Sh.Muyulishdagi uy ,qissa –T., 2000.